GLOBALLASHUV SHAROITIDA SHAXSDAGI MADANIYATLARARO KOMPETENSIYANING AHAMIYATI

Matchanova Nargiza To‘lqinovna
Ma’mun-Universiteti, “Psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi

Zamonaviy jamiyatning rivojlanish tendensiyalari o‘z ichiga integratsiya jarayonlari, globallashuv va madaniyatlararo o‘zaro ta’sir doiralarining kengayishini oladi. Bu jarayonlar inson hayotining madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va kundalik hayot kabi deyarli barcha sohalarini qamrab oldi. Qanday bo‘lmasin, insonlar hayotlari davomida boshqa madaniyat vakillari bilan, masalan, qo‘shnilar yoki hamkasblar sifatida muloqot qilishadi. Bunday muloqot jarayonida til to‘sig‘i, dunyoqarashdagi farqlar va madaniy xususiyatlar tufayli qiyinchiliklar paydo bo‘lishi mumkin. Bu holat tolerantlik va empatiyani shakllantirishni, samarali o‘zaro ta’sirni muvaffaqiyatli integratsiya qilish va amalga oshirish uchun universal xulq-atvor namunalarini tezda moslashtirish va egallash qobiliyatini talab qiladi. Bunday ko‘nikma va qobiliyatlar chet elda ishlash yoki o‘qish, ko‘p madaniyatli jamoada samarali hamkorlik qilish uchun zarurdir. Bunda madaniyatlararo kompetentsiyani rivojlantirish dasturlari yordam berishi mumkin.

Xorijiy adabiyotlarda “madaniyatlararo kompetensiya” tushunchasi 1970-yillarning boshlarida ya’ni madaniyatlararo muloqot muammosi dolzarb masala sifatida mustaqil ilmiy yo‘nalish bo‘lib rivojlanayotgan paytda paydo bo‘lgan. 1980-yillarda boshqa madaniyat va ularning qadriyatlariga munosabat, etno-madaniy markazlashuvni yengish masalalari alohida ahamiyatga bo‘lib qoldi. Ushbu muammolarni o‘rganish davomida madaniyatlararo kompetentsiya boshqa madaniyat vakillari bilan shaxslararo o‘zaro munosabat jarayonida shaxsning talqin qilish spektrini kengaytiradigan analitik va strategik qobiliyatlar majmuasi sifatida ko‘rib chiqila boshlandi.

N.N.Vasilyeva madaniyatlararo kompetentsiyaga - bu ma’lum jamiyatning individual va guruhli munosabatlarini shakillantiradigan turmush tarzi, urf – odatlari, munosabatlari haqidagi bilim, shaxsiy motivativlar, xulq – atvor shakllari, no verbal komponentlar (imo – ishoralar, mimikalar), milliy va madaniy an’analar, qadriyatlar tizimi deya ta’rif beradi. Madaniyatlararo kompetensiyaning mavjudligi odamni boshqa madaniyatga duch kelganda madaniy zarba, yoqimsiz ajablanish va umidsizlikdan qutqaradi [5].

N.N.Vasilyeva madaniyatlararo kompetensiyani shakillantirishning asosiy usuli bu kommunikativ mashqlar va ijodiy faoliyat deb hisoblagan. Ushbu olimning ishlab chiqqan ta’rifining kamchiligi shundaki, bu yondashuvda madaniyatlararo kompetensiya faqat shaxsning ijtimoiy madaniy jabhadagi bilim darajasi bilan bog‘liq holda tushuniladi. Ammo ma’lumki, boshqa madaniy muhitda muloqot qilish bilan bog‘liq real vaziyatlarda faqat bilimning o‘zi samarali muloqot kafolatini bera olmaydi, shuning uchun madaniyatlararo kompetentsiya tushunchasi bilim komponenti bilan bir qatorda, shaxsning ko‘nimka va malakalarti, qobiliyati va shaxsiy individual tipologik xususiyatlarni ham o‘z ichiga olishi kerak.

Bu borada tadqiqotchi K. Knapp madaniyatlararo muloqot kompetentsiyasi tushunchasining yanada takomillashtirilgan ya’ni “bu tushuncha boshqa madaniyatlar vakillarini ham, o‘z madaniyati vakillarini ham bir xil darajada tushunishga erishish qobiliyati” ta’rifini taklif qilganligini ko‘rishimiz mumkin [7]. Tadqiqotchi ushbu qobiliyatning quyidagi tarkibiy qismlarini alohida ajratib ko‘rsatadi:

- kommunikativ harakatlarni bilish hamda ularni o‘zining va o‘zga madaniyatda, shuningdek, tilda izohlash;
- madaniyat va muloqot o‘rtasidagi munosabatlar, shu jumladan fikrlash tarzi va xulq-atvorining madaniyatga xos fikrlash xususiyatlariga bog‘liqligi;
- yuqoridagi xususiyatlar bilan belgilanadigan madaniyatlar o‘rtasidagi farqlar haqida umumiy bilim;
- o‘zaro ta’sirni barqarorlashtirish uchun muloqot jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal qilish.

Ushbu yondashuvning asosiy afzalligi - bu shaxsning madaniyatlararo kompetentsiyasining o’zaro bog‘liq ikkita jihatini, ya’ni mahalliy va xorijiy madaniyatlarni tushunish qobiliyatini aniqlash hamda tafakkur va xulq-atvor o‘rtasida barqaror aloqadorlikni o‘rnatishni muhim jihat sifatida sanab o‘tganligidadir. Umuman olganda, K.Knapp modeli asosan boshqa madaniyat vakillari bilan muloqot qilishda xulq-atvor jihatiga qaratilgan bo‘lib, muloqotni madaniy mazmun almashinuvi sifatida anglatmaydi, asosan madaniyatni tushunish va bilishga yo‘naltiradi.

J.S.Millning ta’kidlashicha, madaniyatlararo kompetentsiya o‘zgarishlar va muqobillik timsoli sifatida turli xil yashash usullari mavjud bo‘lganda muhim hisoblanib, turli fikrlar rang-barangligini va xilma-xilligini ta’minlashga hizmat qiladi. Ushbu olim turli xil fikrlar bo‘lishi foydali bo‘lgani kabi, turli xil turmush tarzi bo‘lishi va bir-biriga zarar yetkazmaslik uchun har xil belgilar uchun har qanday imtiyozlar berilishi lozim deb hisoblagan [6].

Madaniyatlararo kompetentsiya konsepsiyasi, uning tuzilishi va baholash usullari borasida M.Byram tomonidan faol ishlab chiqilgan model eng to‘liq bo‘lib, shaxsning turli sifatlari, qobiliyatlari va malakalarini qamrab oladi. Ushbu model G’arb ilmiy adabiyotlarida madaniyatlararo kompetentsiyani shakillantirish usullari bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu modelga ko‘ra, madaniyatlararo kompetentsiya quyidagi elementlardan iborat[1]:

- ✓ munosabatlar;
- ✓ bilim;
- ✓ izohlash;
- ✓ korrelyatsiya qilish ko‘nikmalari;
- ✓ kashfiyotlar;
- ✓ o‘zaro ta’sir qilish qobiliyatlari;
- ✓ madaniyat yoki siyosiy ta’lim borasida o‘z fikriga ega bo‘lish.

Yuqori darajadagi madaniyatlararo malakaga ega bo‘lgan turli madaniyat vakillari o‘rtasidagi munosabatlar ochiqlik va qiziquvchanlik, boshqa va mahalliy madaniyatga nisbatan noto‘g‘ri qarashlardan voz kechishga tayyorlik asosida qurilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shaxsdagi ijtimoiy madaniy bilim komponenti ijtimoiy guruhlar, ularning xususiyatlari va o‘z mamlakatidagi va aloqa hamkori mamlakatidagi amaliy faoliyati, ijtimoiy va shaxsiy o‘zaro ta’sirning umumiy jarayonlari haqida xabardorlikni o‘z ichiga oladi. Ushbu ko‘nikmalar insonning boshqa davlatning qonun va qonunosti hujjatlari yoki ijtimoiy - madaniy hodisalarni sharhlash, uni tushuntirish va o‘z madaniyati bilan bog‘liq jarayonlarni taqqoslash qobiliyatidan iborat.

Madaniyatlararo kompetentsiyaning yana bir komponenti – bu madaniyat va madaniy amaliyotlar to‘g‘risida yangi bilimlarni egallash qobiliyati, real vaqtda muloqot va o‘zaro ta’sir kontekstida bilim, munosabatlar va ko‘nikmalarni boshqarish qobiliyati.

Oxirgi komponent - madaniyat yoki siyosiy ta’limni tanqidiy anglash hisoblanib – bu o‘zi mansub bo‘lgan va boshqa madaniyatlarga xos bo‘lgan dunyoqarash, faoliyat va faoliyat natijalarini tanqidiy va ma’lum mezonlar asosida baholash qobiliyatidir.

Shunday qilib, madaniyatlararo kompetentligi yuqori bo‘lgan shaxs quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak:

- turli madaniyatlar o‘rtasidagi munosabatlarni (jamiyatga nisbatan tashqi va ichki) ko‘ra olish malakasi, vositachilik qilish, bir madaniyatni boshqasi bilan izohlash qobiliyati;
- o‘zi mansub bo‘lgan va boshqa madaniyatlarni tanqidiy va analitik tushunish;
- o‘zining dunyoqarashi va tushunchasi tabiiy ekanligiga emas, balki ijtimoiy - madaniy omillarga bog‘liq holda shakillanganligiga ishonish va buni to‘g‘ri anglashdir.

Ushbu xususiyatlarga asoslanib, biz madaniyatlararo kompetensiyani bilim, ko‘nikma va ijtimoiy tajribalkar yig‘indisi ekanligini ta’kidlagan holda, ular yordamida inson boshqa madaniyatdagi sheriklar bilan ham kundalik, ham professional darajada muvaffaqiyatli muloqot qilishi mumkin.

Yuqori darajadagi madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish shaxsdan nimani, qachon, kimga va qanday aytishni yoki qilishi kerakligini tushunishni talab qiladi. Ushbu munosabatlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ularga quyidagi bilim va ko‘nikmalar kerak:

- ✓ ijtimoiy-madaniy bilimlar;
- ✓ muloqot qobiliyatlari;
- ✓ til bilimlari;
- ✓ psixologik ko‘nikmalar.

Ijtimoiy-madaniy bilim (“nima”) shaxsning ijtimoiy va shaxsiy tajribasi natijasida shakllanadi va dunyo haqidagi asosiy bilimlarni tashkil qiladi. Muloqotdagi hamkorning milliy va madaniy o‘ziga xos xususiyatlarini bilmaslik, ko‘pincha xulq-atvor sohasida, shu jumladan og‘zaki bo‘lmagan aloqa vositalarida, xalq an’analarida, salomlashish odobida va hokazolarda yuzaga keladigan muloqotdagi muvaffaqiyatsizliklar va nizolarga olib keladi.

Muloqot ko‘nikmalari (“qachon va kimga”) - bu muloqot maqsadlariga erishish uchun muloqot jarayonida qo‘llaniladigan g‘oyalar, fikrlar, his-tuyg‘ular, tajribalar, sheriklar va suhbatdoshlarga ta’sir qilish usullarini ifodalash usullari to‘plami. Ushbu turdagi bilim boshqa madaniyat vakillari bilan muloqot qilishning oldingi tajribasi natijasidir. Amalda bu shuni anglatadiki, muloqot subyekti samarali tarzda: o‘zining muloqot strategiyasini shakllantirishi, turli taktik aloqa usullaridan foydalanishi va o‘zini muloqot jarayonining ishtirokchisi sifatida ko‘rsatishi kerak.

Til bilimi (“qanday”) ham o‘z madaniyatini, ham boshqa madaniyatni o‘rganish vositasidir. Madaniyatlar o‘rtasidagi farq eng aniq tilda namoyon bo‘ladi. Shu sababli, boshqa madaniyat tilini bilish madaniyatlararo kompetentsiyaning ajralmas shartidir, chunki u tegishli mamlakatning madaniy xususiyatlarini yetarli darajada tushunishni ta’minlaydi. Tilni bilish shaxsga o‘z xatti-harakatlarini sheriklarining xatti-harakatlariga moslashtirishga imkon beradi, bu uning madaniyatlararo muloqot qilish qobiliyatini, ya’ni turli madaniyatlarga mansub bo‘lgan muloqot ishtirokchilarining o‘zaro adekvat tushunish qobiliyatini rivojlantirishini anglatadi. Tilni bilish, shuningdek, muloqot subyektining shaxsiy fazilatlarini - ochiqlik, bag‘rikenglik va boshqa madaniyat vakillari bilan muloqot qilishga tayyorlikni shakllantiradi.

Psixologik ko‘nikmalar “qanday” degan savolga ham javob beradi, chunki ular boshqa madaniyat hodisalariga shaxsning munosabat turini ifodalaydi. Madaniyatlararo kompetentsiyaning ushbu komponenti xorijiy mualliflarning asarlarida “madaniyatlararo sezgirlik” atamasi bilan belgilanadi. Uning asosi - psixologik aloqalarga kirishish, muloqot paytida sheriklar va suhbatdoshlar bilan ishonchli munosabatlarni shakllantirish qobiliyatida ifodalangan tabiiy xushmuomalalik; keskinlik, bezovtalik va psixologik noqulaylik hissi yo‘qligi bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy psixologiyada bu holat empatiya deb ta’riflanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki madaniyatlararo kompetentsiya bugungi kunda madaniyatlararo o‘zaro munosabatlarda muvaffaqiyatga erishish vositasi sifatida qaraladi va xalqaro hamkorlik samaradorligini batafsil tavsiflash orqali aniqlanadi. Ayniqsa madaniyatlararo o‘zaro ta’sirning samaradorligi va madaniyatlararo kompetentsiya asoslarini egallash mezonlari orasida chet el muhitida o‘z kasbiy vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada biz konstruktiv muloqot qilish qobiliyati, tilni yaxshi bilish, mehmon va mezbon tomon vakillari o‘rtasidagi uyg‘un ijtimoiy munosabatlar, stress belgilarining yo‘qligi, xorijiy jamiyat bilan integratsiyta qilishni sanab o‘tishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alred, G., Byram, M., & Fleming, M., (2007), Intercultural e xperience and e ducation in *Multilingual Matters*: London
2. А.Д. Карнышев. Личность и межкультурная компетентность. - http://ecsocman.hse.ru/data/2011/02/08/1214887819/14.pdf.
3. А.П. Садохин Межкультурная компетенция и компетентность в современной коммуникации: (Опыт системного анализа) // Общественные науки и современность. - 2008 № 3. - С. - 156-166.
4. А.В. Третьякова. Формирование межкультурной компетентности с помощью различных видов межкультурного образования. - http: //psyjournals.ru/ files/ 40382/ Ethnopsy_teor_v3_Tretyakova. pdf.
5. Н.Н. Васильева Межкультурная компетенция. Стратегии и техники еедостижения. РГПУ. http: // rspu. edu. ru/ university/ publish/ journal/ lexicography/ conference/ vasilieva % 20 N. htm.
6. Mill, J. S., (1990), *De la liberté* : Gallimard, Paris
7. Yakovleva, L.N. Madaniyatlararo muloqot ikkinchi chet tilini o’qitish uchun asos sifatida // Inostr maktabda tillar. - 2001. - 6-son. – 7 s.